

## Tuyaning hikoyasi



09:19 / 11.11.2023 2972

Assalomu alaykum, hikoya qilish navbati nihoyat menga ham yetib keldi. Qadimgi paytlarda yuk tashishda mening oldimga tushadigani yo'q edi. Mashinalar, poezdlar, samolyotlar paydo bo'ldi-yu, odamlar meni eslaridan chiqarib qo'yishdi. Meni ilgari ulug'lashib «Sahro kemasi» ham deb atashardi. Mening qadamim yetgan joylar o'z-o'zidan karvon yo'llari deb atalardi.

Ismim Jad'o, Payg'ambarimiz Makkadan Madinaga hijrat qilganlarida men u kishining xizmatlarida bo'lgan edim. Ana shunaqa, baxtiyor jonivorlardanman. Payg'ambarimizning bir emas uchta tuyalari bor edi. Yana bir sherigimning ismi Qasvo edi. Uchinchisini Azboa edi. Oramizda Azboa juda ham chopog'on edi. Hech birimiz unga yetib yurolmas edik. Shoshilinch paytlarda Payg'ambarimiz o'shani minardilar. Boshqa paytlarda Qasvo ikkimiz xizmatlarida bo'lar edik. Azboani sahobalar ko'pincha poygalarga qo'yishar edi, qanaqa poyga bo'lmasin u marrani birinchi bo'lib egallardi. Shungami, u juda kerilib ketgan, bosar-tusarini bilmay qolgan edi. Boshqalar ham uning chopag'onligi uchun ko'p erkalatishardi. Bir kuni u poyga paytida dinsiz arobiyning tuyasiga yutqazib qo'ydi. Sahobalar bu holdan xafa bo'lishdi va Rasulullohga kelib voqeani aytishdi. Rasululloh bo'lsalar shunday deganlarini eshitdim:

- Bunga xafa bo'lmanglar, chunki dunyoda har bir ko'tarilgan narsani tushirish Allohning odatidir, - dedilar.

Shu voqeadan keyin Azboaning ancha popugi pasayib qoldi. Sal bo'lmasa manmansirab ketgan edi-da. Azboa Payg'ambarimiz vafot etganlaridan keyin ayriliqqa chiday olmadi. Motam tutib xas-xashak yemay qo'ydi va shu ko'yi o'lib ketdi. Payg'ambarimizning Ya'far, Ufayr degan eshaklari ham bor edi. Ya'far juda ham aqlli jonivor edi. U shaytonni ko'rardi. Uni ko'rdi deguncha, undan xabar berish uchunmi yoki uni la'natlash uchunmi, hangrab yuborardi.

Yana bir gap, Payg'ambarimiz xo'rozlarning tong pallasida qichqirishlarini yaxshi ko'rar edilar. U kishining bitta oq xo'rozlari bor edi. Uni suyub parvarish qilar edilar, bu haqda hadislar ham bor. Payg'ambarimiz ana shu ikki jonivor haqida shunday deganlar: «Xo'roz qichqirganini eshitsanglar Allohdan yaxshilik so'rab duo qilinglar, chunki u qichqirganda farishtalarni chaqiradi. Shunda farishtalar omin desa duo qabul bo'ladi. Agarda eshak hangrasa Allohdan panoj so'ranglar, u shaytonni ko'rib hangraydi».

Payg'ambar Muhammad alayhissalom bu jonivorlarni yaxshi ko'rardilar. U kishining ona kiyik bilan va boshqa jonivorlar bilan gaplashganlarini eshitganman. Ular Payg'ambarimiz bilan xuddi odamga o'xshab gaplashishgan. Bilsangiz, bular ham bir mo'jizadir.

U kishi meni minganlarida hech ham burundig'imni ushlamas edilar. Boshqalarga ham tutdirmas edilar. Men Allohning amri bilan Payg'ambarimiz qayoqqa otlansalar, o'z-o'zimdand o'sha yoqqa yurar va manzilni adashmay topib borar edim.

Madinaga hijrat qilganimizda ham shunday bo'ldi. Shaharga kirishimiz bilan minglab odamlar bizni o'rab olishdi. Hammayoq bayram tusiga kirgan, odamlar turli-tuman cholg'ularni chalishar, qo'shiqlar aytishar, chiroyli baytlar to'qishar edi. Ha, Madinada Payg'ambarimizning kelishlariga katta shodiyonalik boshlangan edi. Kutib oluvchilarning har biri mening burundig'imni tutmoqchi bo'lishar va shu ko'yi Payg'ambarimiz uylariga tushishlarini, mehmon bo'lishlarini orzu qilishardi.

- Yo Rasululloh bizning hovliga tushing, siz uchun alohida uy tayyorlab qo'yibmiz. Ko'nglimiz charog'on bo'ldi, kulbamizni ham charog'on qiling, - deya

o'tinishar edi madinaliklar.

Payg'ambarimiz mehmondo'st madinaliklar orasida talash edilar. U kishi tabassum qilar, madinaliklar bilan so'rashar, ularning Islomga kirganliklari bilan qutlar edilar. Mening bo'lsa burundig'im bo'ynimga o'ralgan, to'xtamay, ozod ketib borar edim. Odamlar yana Rasulullohga murojaat qila boshladilar:

- Yo Rasululloh, qadami sharifingiz bilan kimning kulbasini guliston qilursiz?

Shunda Rasululloh dedilar:

- Men mingan tuyamga bu ish buyurilmishdir, u qaerga cho'ksa, o'sha joy bizning manzilimiz bo'lur.

Odamlar bu javobdan hangu-mang bo'lib qolishdi. Ular endi menga ham alohida e'tibor bera boshladilar. «Ey jonivor, mening kulbam oldida cho'kkil», deb murojaat qilishar, yolvorishardi. Har bir darvoza oldida turganlar umid bilan menga boqishardi. Men esa hamon yo'lda davom etardim. Mening buyurilgan joyim aniq edi, u joy Payg'ambarimizning qarindoshi, tog'asi Bani Adi Binni Najor mahallasi edi. Muhammad sallallohu alayhi vasallam bu mahallada ilgari bo'lmagan edilar. Meni farishtalar boshlab borishar, mahallaning qaerdaligini ular bilar edilar.

Nihoyat, Abu Ayyub Ansoriyning kulbasi ro'parasida to'xtashga amr etildim. Shu yerga cho'kdim, Kulba egasi Ansoriyning ko'zlaridan duv-duv yosh to'kildi. Payg'ambar yerga tushar ekanlar, shunday dedilar:

- Shu joy bizning manzilimiz, inshaalloh.

Ul muborak zot duo o'qidilar:

- Ey bor Xudoyo, meni qutlug', muborak o'ringa tushirgin, tushiruvchilarning eng yaxshisi o'zingdursan!

Ansoriy suyunganidan o'zini yo'qotar holga keldi va ustimdagi yuklarni uyiga olib kira boshladi.

- Kishining yuki qaerda bo'lsa, egasi ham shu yerda bo'lur, - deya Muhammad alayhissalom uy egasining orqasidan yurdilar.

Buni ko'rgan madinaliklar:

- Ey Ansoriy, siz qanchalar Alloh suygan bandasiz, biz endi Muhammad alayhissalomni ziyorat qilgani har kuni uyingizga kelgaymiz. Bu qutlug' baxt

muborak bo'lsin, – deb uylariga tarqadilar.

Keyinchalik o'sha men cho'kkan joy Islom tarixida o'chmas bo'lib qoldi. Payg'ambarimiz u yerni sotib oldilar, masjid qurdilar. Bu masjid Madinadagi dastlabki masjid edi. Ha, Payg'ambarimiz o'z qo'llari bilan qurgan birinchi ibodatxona edi. Dastlabki azon tovushi ham shu yerdan yangragan. «Masjidi Nabaviya», ya'ni Payg'ambar masjidi nomi bilan mashhur bo'ldi.

Biz tuyalar jonivorlar orasida eng azizi hisoblanamiz. Chunki, o'tmishdagi Payg'ambarlarga ham, Muhammad alayhissalomga ham biz xizmatda bo'lganmiz. Yana men shu narsaga ham guvoh bo'lganmanki, Payg'ambarga vahiy olib tushadigan Jabroil alayhissalom Rasulullohning dushmanlariga nortuya bo'lib ko'ringanlar va ularga dahshat solib, qo'rqitganlar. Shundan bilingki, biz ham Alloh yaratgan mo'jizalardanmiz. Qalay mening ham hikoyam sizlarga ma'qul bo'ldimi? Ma'qul qila olgan bo'lsam, baxtiyorman.

***Erkin bobo***  
***«Hilol» jurnalining 7(52) sonidan***